

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQAT MUHIM PSIXIK FENOMEN SIFATIDA

Arakulov Gayrat Tulkinovich, O'zMU Jizzax filiali o'qituvchisi

arakulovgayrat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunning muhim mavzularidan bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarining intellektual va psixologik rivojlanishida diqqatning dolzarblik darajasi hamda yosh tofasi inobatga olingan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Diqqat, maktabgacha yoshdagi bola, psixik jarayonlar, shaxs, diqqat barqarorligi, konsentratsiya, talim-tarbiya.

ВНИМАНИЕ – ВАЖНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: Данная статья является одной из актуальных на сегодняшний день тем, и освещена она с учетом уровня значимости внимания и возраста в интеллектуальном и психологическом развитии дошкольников.

Ключевые слова: Внимание, дошкольник, психические процессы, личность, устойчивость внимания, концентрация, обучение.

ATTENTION IS AN IMPORTANT PSYCHOLOGICAL PHENOMENON IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation: This article is one of the current topics today, and it is covered taking into account the level of importance of attention and age in the intellectual and psychological development of preschoolers.

Key words: Attention, preschooler, mental processes, personality, attention span, concentration, learning.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev maktabgacha ta'lif tizimi to'g'risida so'z ochar ekan, jumladan, "Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan

ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta’lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir, qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo mакtabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi” deya ta’kidlaydi davlatimiz bosh rahbari.

Darhaqiqat, mакtabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Ma’lumki bola axborot va ma’lumotlarni qabul qilishda uning diqqati muhim rol o‘ynaydi. A.A. Lyublinskayaning ta’kidlashicha, diqqat aqliy faoliyatning alohida shakli emas, balki u har qanday aqliy jarayonga kiradi va kattalar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilgan bolalar faoliyatining xar xil turlarida takomillashtiriladi [1;267]. Mакtabgacha yoshdagi bolalarda beqarorlik, impulsivlik, chalg‘ish, beparvolik, jalb qilishda qiyinchilik va diqqatni bir ob’yektga nisbatan uzoq vaqt jamlashning qiyinligi holati ko‘p kuzatiladi, ularda ixtiyoriy diqqati keyinchalik shakllanadi. Diqqatni tashkil etishdagi kamchiliklar intellektual faoliyatning rivojlanishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining nomukammalligi bilan bog‘liq. Psixologiyada diqqat muammosiga doimo muhim o‘rin berilgan bo‘lib, shu bilan birga diqqat tushunchasining o‘zi fan rivojlanishining turli davrlarida turlichayta’riflangan. Diqqatning tabiatiga oid turli qarashlar zamirida A.A. Osipova va L.I. Malashinskayalar shunday deydi: “Diqqat har doim biror narsaga qaratiladi, bir ob’yektga bo‘lgan qiziqish bir vaqtning o‘zida boshqasiga e’tibor bermaslikdir,

diqqat o‘ziga xos kognitiv jarayon emas, u har qanday bilish jarayoniga (idrok, tafakkur, xotira) xos bo‘lib, bu jarayonni tashkil etish qobiliyati vazifasini bajaradi” [2;104]. S.L. Rubinshteynning fikriga ko‘ra, diqqat - bu ma’lum bir ob’yektga tanlab qaratish va unga diqqatni jamlash, ob’yektga qaratilgan kognitiv faoliyatni chuqurlashtirishdir [3;328]. F.N.Gonobolin so‘zlariga ko‘ra, diqqat - bu aqliy holat bo‘lib, u kognitiv faoliyatning intensivligini tavsiflaydi va unga nisbatan tor sohadagi (harakat, ob’yekt, hodisa) kontsentratsiyasida ifodalanadi [4;160].

Yuqoridagi olimlar fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, diqqat aqliy faoliyatni tashkil etishning psixik omillaridan biridir. Diqqat turli xil xususiyatlar, ya’ni hajm, taqsimot, qat’iylik, konsentratsiya, intensivlik, tebranish va almashinish bilan tavsiflanadi. Diqqatning har bir ko‘rib chiqilgan xususiyati o‘ziga xoslikka ega.

Maktabgacha yoshdagি bolalarda ham diqqatni rivojlantirish kelgusi faoliyati uchun zaruriy shart hisoblanadi. Shuning uchun diqqat shaxsning rivojlanish darajasini umumiyl baholashning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bolada diqqatni biror narsaga qaratib, ko‘rgan yoki eshitgan narsalarini xotirada saqlashi mumkin, ammo ilgari qabul qilingan ma’lumotlardan yod ma’lumotlarni qabul qilganda unda ikkilanish, tushunmovchilik holati yuzaga keladi. Bunday harakatlar asosan maktabgacha yoshdagи bolalarda ko‘p kuzatiladi. Ushbu yoshdagи bolaning diqqati uning atrofdagi predmetlar va ular bilan amalga oshiriladigan harakatlarga nisbatan qiziqishlarini aks ettiradi. Bola faqat qiziqish yo‘qolguncha diqqatini qaratadi. Yangi ob’yektning paydo bo‘lishi darhol diqqatni unga o‘tkazishga olib keladi, shuning uchun bolalar kamdan-kam hollarda uzoq vaqt davomida aynan bir faoliyatga nisbatan diqqat qaratadi. Ammo, maktabgacha yoshdagи bolalar faoliyatining murakkablashishi va ularning umumiyl aqliy rivojlanishi tufayli diqqat ko‘proq konsentratsiya va barqarorlikka ega bo‘ladi. Demak, aksar hollarda maktabgacha yoshdagи bazi bolalar bir xil o‘yinni 30 daqiqa

davomida o‘ynashlari mumkin bo‘lsa, besh yoki olti yoshga kelib, o‘yining davomiyligi 2 soatgacha oshishi mumkin. Buning sababi shundaki, o‘yin odamlarning yanada murakkab harakatlari va munosabatlarini aks ettiradi va unga bo‘lgan qiziqish doimiy ravishda yangi vaziyatlarni joriy etish bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Boshqacha aytganda maktabgacha yoshdagi davrning oxiriga kelib, ongli ravishda qo‘yilgan maqsad bilan, iroda sa’y-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan faol diqqatning boshlanishi paydo bo‘ladi. Uning paydo bo‘lishi bolaning psixikasida muhim neoplazma hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqat yanada yaxshi rivojiana boshlaydi, chunki bu davrda bola va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni ham faollashadi. Bundan tashqari, bu yoshga kelib bolaning e’tibori nafaqat barqaror, hajm jihatidan kengroq, balki samaraliroq bo‘ladi. Bu ayniqsa bolada ixtiyoriy harakatning shakllanishida yaqqol namoyon bo‘ladi, bola o‘z e’tiborini ular uchun intellektual jihatdan katta qiziqish uyg‘otadigan o‘yinlarga, harakatlarga, jumboqlarga, topishmoqlarga, ta’lim turidagi vazifalarga qarata oladilar va natijada intellektual faoliyatga e’tiborning barqarorligi yetti yoshga kelib sezilarli darajada oshadi.

Shunday qilib, psixik hodisalar orasida diqqat alohida o‘rin egallaydi. U hayotda aqliy faoliyatning muhim jihatni sifatida namoyon bo‘ladi va bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish, mehnat faoliyatining sifati va unumdoorligi, shaxsning o‘zini o‘zi namoyon etishi uchun zarur vosita hisoblanadi.

Tahlillarimiz natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat barqarorligini taminlash maqsadida quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz:

- Maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni interfaol va rangdor ko‘rgazmali qurollardan foydalangan holda olib borish;
- “Art terapiya”, “Musiqa terapiya” mashg‘ulotlarini kun tartibiga kiritish;

- Aynan diqqati beqaror bolalarni aniqlab ularning ismlarini mashg‘ulot davomida tez-tez takrorlash;
- Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda reglamentga qat’iy rioya qilish;

So‘z yakunida shuni alohida ta’kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni asosiy va muhim jihat shundaki, diqqatning barqarorligi bolada bilimlarni tez va sifatli o‘zlashtirishda muhim omil sanalishi bilan bir qatorda, ushbu bilim va ko‘nikmalardan foydalangan holda kelajakda yurt ravnaqi uchun muhim ijobjiy o‘zgarishlar qila oladi deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Люблинская А.А. Детская психология: Учебное пособие. - М.: Просвещение, 1971. - 267с.
2. Осипова А.А., Малашинская Л.И. Диагностика и коррекция внимания. – М.: ТЦ Сфера, 2002. - 104с.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. В 2-х т. - М.: Педагогика, 1989. Т.1. - 488 с.; Т.2. - 328с.
4. Гоноболин Ф.Н. Внимание и его воспитание. - М.: Педагогика, 1972. - 160с.
5. Мажидов Жасур, & Ҳамдамов Ҳайдарбек. (2022). ШАХСГА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Inolta Scientific Journal, 1(7), 138–148. Retrieved from <https://inolta.uz/index.php/iv/article/view/255>